

438
669.05
1746

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA TA'LIM
VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI**

**PIROMETALLURGIYA
JARAYONLARI NAZARIYASI**
fanidan amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya
ishlari uchun uslubiy qo'llanma

Toshkent 2013

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA TA'LIM
VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI**

**PIROMETALLURGIYA
JARAYONLARI NAZARIYASI**
fanidan amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya
ishlari uchun uslubiy qo'llanma

Toshkent 2013

UDK 669.

Pirometallurgiya jarayonlari nazariyasi fanidan analiy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun uslubiy qo'llanma. Yusupxodjayev A.A., Mirzajonova S.B. – Toshkent: ToshDTU, 2013.

Uslubiy qo'llanmada kimyo va fizik kimyo qonuniyatlarining metallurgik hisobotlarga qo'llanish misollari keltirilgan. Hisobotlarga kerak bo'lgan axborot materiallari va mustaqil ishlashga vazifalar berilgan.

Uslubiy qo'llanmada "Pirometallurgiya jarayonlari nazariyasi" fanini to'liq o'zlashtirishga yo'naltirilgan tajriba ishlari to'plangan. Har bir ish ikki soatga mo'ljallangan bo'lib, ishning maqsadi, ishni bajarish uchun kerakli jihoz va materiallar, laboratoriya ishini bajarish tartibi va tajribada olingan natijalarga ishlov berish uslublarini o'z ichiga olgan.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashi qarori asosida nashr etildi.

Taqrizchilar:

1. O'zMU, Kimyo fakulteti, "Noorganik kimyo" kafedrası professori, k.f.d., prof. Xodjayev O.F.
2. ToshDTU, Geologiya va konchilik ishi fakulteti, "Konchilik ishi" kafedrası dotsenti, t.f.n. Umarova I.K.

1 - amaliy mashg'ulot

Metallurgiya sohasida qo'llaniladigan stexiometrik hisoblar

Hozirgi zamonda texnik hisoblarda ilmiy ishlab chiqarishda uzunlik o'lchov tizimidan foydalaniladi. Texnik va uzunlik o'lchov tizimining asosiy birikmalari 1 m, 1 kg, 1 sek (MKS).

Biror narsaning katta-kichikligini ifoda etishda fizikaviy va fizika-kimyoviy miqdorlarini hisoblashda (CGS) tizimidan, ya'ni asosiy birikmalari bo'lgan 1 sm, 1 g, 1 sek. dan foydalanamiz.

Uzunlik o'lchov tizimini asosiy fazilatlari quyidagilar:

1. Uning bir xil o'nga bo'linishi uzunlikning, hajm, og'irlik, mayda birligida 10, 100, 1000 va juda mayda birliklar ham bor bo'lib, ular ko'paytirish va bo'lish orqali oson topa oladi.

2. Og'irlikning o'lchov birligi etib (dengiz yuzining 45 kenglikdagi past-balandlik darajasi olingan) 4°C haroratdagi toza suvning bir kub ditsimetr (litr) og'irligi olingan, bu o'z navbatida 1 m suv 1000 kg, yoki 1 t, shuningdek 1 sm³ - 1 grammga tengdir. Har qanday moddaning solishtirma og'irligini bilib uning hajmini topish mumkin yoki aksincha.

Shu ikki o'lchov birligidan foydalangan holda hisob-kitoblar ancha soddashtirilgan holda hisoblanganda, shuning uchun metr o'lchov tizimi 1875 da o'lchov va og'irlik o'lchovi internatsional konventsiyasida xalqaro tan olingan.

Shunga qaramay hozirgi ba'zi bir davlatlar eski noqulay tizimda foydalanib kelishadi. Bular qatoriga ingliz davlat tili davlatlari (Buyuk Britaniya, AQSH, Kanada va boshqalar) kiradi, ularda asosiy uzunlik o'lchov birligi etib, 1 funt (12 dyuyma = 0,3048 m); og'irlik birligi - funt (16 untsiy = 7000 gran = 0,4536 kg) va 1 ingliz t (2240 funt = 1,016 m) va hokazo.

Ingliz tilida metallurgiya bo'yicha juda ko'p kitoblar bor, shuning uchun metallurgiya tez-tez inglizcha uzunlik o'lchov birligi va og'irlik o'lchov birliklariga murojaat etishga to'g'ri keladi. Ingliz adabiyotida materiallar raqami uzunlik bo'yicha hisoblab chiqariladi. Adabiyotlarda inglizcha o'lchov birligidan bu o'lchov birligiga o'tishda o'tish ko'paytiruvchilari berilgan.

Stexiometrik va issiqlik metallurgik hisob-kitoblarda asosiy qilib uzunlik o'lchov birligi olingan.

Og'irlik (M, m) asosiy metallurgik og'irlik o'lchovlari etib

kilogramm (kg), ko'p miqdordagi tonna (t), kichik miqdordagi og'irlik uchun-gramm (g) olingan.

Ba'zi hollarda moddaning og'irligi molekular birlikda kilogramm-molekula (kg-mol) yoki gramm-molekula (g-mol), ya'ni moddaning miqdori mirdaks ifodalanadi. Shunga ko'ra uning molekular og'irligi kg yoki grammda ifodalanadi. Masalan: 1 kg-mol kislorod 32 kg, oltingugurt angidrid 64 kg, pirit - 120 kg yoki 1 g-mol shunga muvofiq 32, 64, 120 g tengdir.

Moddaning og'irlik o'lchovidan osongina molekular og'irlik o'lchoviga yoki aksincha o'tish mumkin. Masalan: 224 kg oltingugurt angidrid $224 : 64 = 3,5$ kg-mol bo'lsa, $0,8 \text{ kg SO}_2 = 64 \cdot 0,8 = 51,2$ kg tengdir. $36 \text{ kg pirit} : 120 = 0,3$ kg teng bo'lsa, 12 kg-mol esa $120 \cdot 12 = 1440$ kg tengdir.

Hajm sig'im (V, v). Bir metr kub (m^3), sig'im 1 kg olingan. Sig'im uchun 1 litr - 1 kg suv olingan, uning katta bo'lmagan zichlik bilan, ya'ni (4 haroratda 1 atm.).

Texnikada qattiq moddalarning hajmi asosan m^3 da, suyuq va gazlar esa l (litr) va m^3 da o'lchanadi.

Solishtirma og'irlik (D, d) solishtirma hajm (v/g). Jismning uning hajmiga nisbatan solishtirma og'irlik deyiladi:

$$D = m/v = g/v$$

va 1 g/sm^3 deb ifodalanadi. Suvning 4°C harorat ostidagi va 1 at. dagi zichligi (solishtirma og'irligi) 1 g/sm^3 bo'lsa, unda qattiq jismlarning va suyuqlikning (4°C va 15°C) solishtirma og'irligi tenglashtirishda 1 deb olinadi. Gazlarning zichligini tenglashtirishda normal sharoitda havo olinadi.

Solishtirma og'irlik va zichlik o'rtasida farq bo'lmasada, qattiq jismlar uchun solishtirma og'irlik va gazlar uchun zichlik, suyuq moddalar uchun solishtirma og'irlik va zichlik termini qo'llaniladi.

Qattiq jismlar va suyuqlikning solishtirma og'irligi uchun haroratning va bosimning unga ahamiyati yo'q, shuning uchun ularga har xil haroratda va bosimda bir xil qabul qilinadi. Aksincha, gazlarning zichligini o'lchashda bosim va harorat katta rol o'ynaydi. Har xil moddalarning solishtirma og'irligi quyidagi formula bo'yicha chiqariladi:

$$D = \frac{100}{\frac{a}{d_1} + \frac{b}{d_2} + \frac{c}{d_3} \dots}$$

Solishtirma hajm (v/g) deb 1sm^3 , 1m^3 va 1l joydagi 1kg, 1t aytiladi. Solishtirma hajm solishtirma og'irlikning teskarisidir.

$$D = \frac{100}{\frac{65}{5} + \frac{12}{4,2} + \frac{5}{4,0} + \frac{18}{2,7}} = 4,2$$

Bosim (P, p). Bir maydon sirtiga ta'sir qiluvchi kuch bosim deb yuritiladi. Texnikada bosim atmosfera (1at) simob usti bilan o'lchanadi(mm.rt.st), 1mm suv ustini, yoki 1sm^2 dagi kg (kg/sm^2) bilan o'lchanadi, ingliz tizimida esa 1 kvadrat dyuymdagi 1 ingliz funti bosim deb ifodalanadi.

Fizik va texnik atmosferalarga bo'linadi.

1. Fizik atmosfera deb 760 mm simob ustuni (0°C) otidagi bosimga aytiladi yoki normal holda, ya'ni $1033,3\text{ g}/\text{sm}$ bosimga teng. Texnik yoki uzunlik (o'lchov) atmosfera etib $1,0333\text{ kg}/\text{sm}$ bosimga teng. Texnik yoki uzunlik (o'lchov) atmosfera etib $1,0333\text{ kg}/\text{sm}$ yoki $10333\text{ kg}/\text{m}$ olinadi.

Monometrik yoki ortiqcha (r.atm) va absolut yoki haqiqiy (Pa , atm) bosimni aniqlash kerak. Monometrik bosim monometr yordamida o'lchanadi, uning siyraklashuvini (vakuum,r) o'lchaydi ya'ni ushbu apparatdagi barometrik bosimni ortiqcha salbiy bosimni yoki oxirgi o'lchangan bosimda ortiqcha bosimni o'lchaydi. Absolyut bosim barometrik va monometrik bosimning algebraik yig'indisidan tashkil topadi:

$$\text{Pa} = \text{Pv} + \text{Ph} \text{ (agar bosim atmosferadan ko'p bo'lsa)}$$

$$\text{Pa} = \text{Pv} - \text{Ph} \text{ (agar siyraklashsa)}$$

$$\text{Pa} = \text{Pv} + \text{Ph} = 0,00136 \cdot 750 + 1,83 = 2,85\text{ kg}/\text{sm}^2.$$

$$\text{Pa} - \text{Pv} - \text{Ph} = 750 - 529 - 221\text{ mm rt.st.}$$

$$0,00136 \cdot 221 = 0,30\text{ kg}/\text{sm}^2.$$

Harorat (T, t). Texnikada haroratni o'lchash kerak, ya'ni jismning qizish darajasini, xalqaro harorat gradus ($^\circ\text{C}$)da, ingliz tilidagi davlatlarda esa Faringeyt ($^\circ\text{F}$) shkalasida o'lchanadi. Fizik-kimyoviy hisob-kitoblarda asosan absolut harorat Kelvin (K) shkalasi bo'yicha hisoblanadi, bunda graduslar xalqaro nol $^\circ\text{C}$ deb topilgan absolut nol harorat - 273°C hisoblab chiqariladi. Demak, absolyut harorat quyidagi nisbat bo'yicha topiladi:

$$T = 273^{\circ} + t^{\circ}$$

Issiqlik (Q, q). Issiqlik katta yoki kichik kaloriya deb hisoblanadi (kkal). Kichik kaloriya deb 1°C haroratda 1 g suvni normal bosimi ostida isitish uchun ketgan issiqlikka aytiladi (ya'ni $19,5^{\circ}\text{C}$ dan 20°C gacha), bitta katta kaloriya deb esa, shu sharoitda 1 kg suvni 1°C da isitishga ketgan issiqlikka aytiladi. Shunday qilib 1 kkal - 1000 kal, shuning uchun bundan keyin katta kaloriya - kilokaloriya deb yuritiladi. Texnik hisoblarda issiqlik kilokaloriya bilan o'lchanadi.

Takrorlash uchun savollar

1. Stexiometriya deb nimaga aytiladi?
2. Bosim, harorat, solishtirma og'irlik o'lchov birliklari qanday nomlanadi?

2- amaliy mashg'lot

Kimyoviy qonunlar asosida stexiometrik hisoblash

Har qanday metallurgik hisob-kitoblarda birinchi asosiy vazifa bu kimyoviy reaksiyaga kirishayotgan moddalarning og'irlik munosabatlaridir. Bu hisoblar stexiometrik hisoblar orqali hisoblab chiqariladi, ya'ni og'irlik va hajm bo'yicha kimyoviy tenglama hisoblab chiqiladi.

Kimyoviy tenglamalarni tuzishda demakki, stexiometrik hisoblarda, murakkab moddalarda elementlar birikmasining hosil bo'lishi bu qonunlar asosida moddalarning tuzilishida molekular - kinetik nazariyasi yotadi.

Moddalarning (materiya) saqlanish qonuni

Kimyoviy tenglamalarni tuzishda avval materialning saqlanish qonundagi foydalanishlar: bir jarayon vaqtida olingan hamma moddalarning og'irlik yig'indisiga teng, ya'ni reaksiyaga kirishgan barcha moddalar yig'indisi, hosil bo'lgan barcha moddalar yig'indisiga teng, ya'ni reaksiyaga kirishgan moddalar yig'indisiga teng. Shu qonun kimyoviy reaksiyalar tenglamasini tenglashtirishda ko'rinadi.

Tarkibining doimiylik qonuni. Bu qonun bo'yicha kimyoviy birikmalar shu bir xil og'irlik va o'sha elementlardan tashkil topadi. Boshqacha aytganda, bu qonun bo'yicha barcha kimyoviy birikmalar

tabiatda hosil bo'lish jarayonidagi doimiy alohida tarkibda hosil bo'ladi. Masalan SO_2 oltingugurt angidrid hosil bo'lishi doim bir xil tarkibga ega: 1 atom oltingugurt va 2 atom kislorod yoki 1 g/atom oltingugurt (32,06 g) ga 2 atom kislorod ($16 \cdot 2 = 32$ g) to'g'ri keladi.

Og'irlik (massa)ning qo'shilishi qonuni yoki ularning qisqa munosabati

Ba'zi bir elementlar boshqa elementlar bilan bir yoki bir necha kimyoviy birikmada uchrashishi mumkin. Ularning hosil bo'lishi qisqa munosabatiga, ya'ni murakkab moddalarning hosil bo'lishida bir element qisqacha biron bir birikmada qisqacha kirishishi yoki butunlay birikishi hosil qilish mumkin. Masalan, FeS temir - sulfidida Fe 56 % va S 32 % tashkil etsa, $\text{FeS}_2 = \text{Fe } 56 \% \text{ ni va S } 64 \% \text{ ni}$ tashkil etadi.

Hajmlarning birikish qonuni

Bu qonun bug' holatidagi gazlarga taalluqlidir. Bir haroratda va bir xil bosim ostida reaksiyaga kirishayotgan gazlar hajmi bir-biriga bog'liqdir.

Masalan, 2 hajm kislorod 2 hajm vodorod bilan birikib 2 hajm suv bug'ini hosil qiladi.

Avogadro qonuni. Avogadro qonuniga asosan bir xil harorat va bir xil bosim ostida reaksiyaga kirishgan har xil gazlar hajmidagi molekulalar soni bir xil bo'ladi. Molekular - kinetika nazariyasiga muvofiq 0° va 1 atmosfera barcha moddalardagi molekulalar soni bir xil bo'ladi.

Avogadro soni. Demak, biror-bir moddaning gramm-molekula soni bir xil haroratdagi va bosimdagi bug' holatidan yoki gaz holatidagi va bosimdagi bug' holatidan yoki gaz holatidagi bo'lsada bir xil hajmga egadir, tajribalardan belgilanganki, biron-bir 1 g-mol gazning 0° va 1 atmosferadagi hajmi 22,414 l teng yoki 1 kg-mol 22,414 m^3 tengdir. Bu molekular yoki molar hajm deyiladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Modda massasining saqlanish qonuni deb nimaga aytiladi?
2. Avogadro qonuni va doimiysi deb nimaga aytiladi?

3 - amaliy mashg'ulot

Metallurgik hisoblarda kimyoviy tenglamalar

Yuqorida ko'rsatilgan qonunlar kimyoviy formulalar tuzishda va kimyoviy reaksiyalarni kimyoviy tenglamalar ko'rinishida ko'rsatishda qo'llaniladi. Kimyoviy tenglamalarda chap tomonda barcha reaksiyaga kirishgan moddalar va o'ng tomonda esa barcha hosil bo'lgan moddalar ko'rsatilgan.

Kimyoviy tenglamaning chap va o'ng tomonidagi moddalar kimyoviy, fizikaviy xossalari jihatidan bir-biridan farq qiladi, ammo chap va o'ng tomonlar bir xil massaga ega bo'lishadi. Shuning uchun kimyoviy tenglamalar moddaning saqlanish qonuniga asosan algebraik qonuniyatga bo'ysunmaydi, algebraik hisoblanadi xolos.

Kimyoviy jarayonlar vaqtida reaksiya kirishayotgan moddalarning miqdoriy munosabatini ko'rsatadi, uning eng asosiy bahosi ham shudir.

Stexiometrik hisoblar bo'yicha molekular tenglamalarda reaksiya kirishayotgan moddalar molekular formulalarda ifodalanadi. Molekular tenglamalar og'irligi, hajmi bo'yicha oson hisoblanadi va biri ikkinchisiga o'ta oladi.

1-misol. Rux sulfidi kislorod bilan reaksiyaga kirishi natijasida rux oksidi hosil bo'lib, gaz ajralib chiqadi. 150 kg rux sulfididan qancha miqdorda gaz ajralib chiqishini hisoblash quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

		$2\text{ZnS} + \text{SO}_2 = 2\text{ZnO} + 2\text{SO}_2$			
Molekulala	2	3	3	2	
r...					
Hajmi	-	3·22,4 =	-	2·22,4=4	
		67,2		4,8	
Og'irligi...	2·97,4	3·32	2·81,3	284,06	
....	4		8		
	194,8	96	162,7	128,12	
	8		6		
	194,88 kg ZnS		96 kg O ₂		
	150 kg ZnS		x O ₂		

$$x = \frac{96 \cdot 150}{194,88} = 73,9 \text{ kg}$$

Kislorodning hajmini quyidagi proporsiya orqali hisoblab topamiz.

194,88 kg ZnS ajraladi 67,2 m³ O₂

150 ZnS x O₂

$$x = \frac{67,2 \cdot 150}{194,88} = 51,7 \text{ m}^3 \text{ atm.da}$$

Massa bo'yicha formulaga qo'yib yechilsa hajmi to'g'riligi ko'rinadi

$$V = g \frac{22,4}{M} = 73,9 \frac{22,4}{32} = 51,7 \text{ m}^3$$

Oltinugurt angidridi olish uchun proporsiya bo'yicha hisoblab topamiz:

194,88 kg ZnS oksidlanish natijasida 44,8 m³ SO₂

150 ZnS x SO₂

$$x = \frac{44,8 \cdot 150}{194,88} = 34,5 \text{ m}^3 (0^\circ \text{ yoki 1 atm.ga teng)}$$

Og'irlik miqdori bo'yicha formulaga qo'yib topamiz

$$n = M \frac{M}{22,4} = 34,5 \frac{64,06}{22,4} = 98,7 \text{ kg}$$

ZnO ni olingan miqdori quyidagicha

$$\frac{162,76}{194,88} = 125,8 \text{ kg.}$$

Takrorlash uchun savollar

1. Mis sulfidini stexiometrik usul bilan ajratib olishbo'yicha aniqlang.
2. Avogadro qonuniyatidan kelib chiqqan holda sulfid oksidining hajmini aniqlang.

4 - amaliy mashg'ulot

Metallurgik hisoblardagi usullar va aniqliqlik

Metallurgik hisoblarda stexiometrik hisoblash ikki usulda: oddiy og'irlik va molekular og'irlik, Le-Shatele taklif etgan usullarda amalga oshiriladi. Og'irlikni o'lchashda reaksiyaga kirishayotgan barcha moddalar kimyoviy tenglama ko'rinishida o'zaro miqdoriy taqqoslanadi va proporsiyalar tuziladi. Le-Shatel'e usulida moddalarning miqdori molekular hajmda (m.x.) oddiy og'irlik nisbati bo'yicha molekular tenglamadan kelib

chiqib hisoblanadi, ya'ni barcha reaksiyaga kirishgan ma'lum miqdordagi moddalarning molekular og'irliklari (hajm) olinib hisoblanadi. Natijani hajm (22,4) soniga ko'paytiriladi.

$$V = 22,4 \cdot x \text{ l yoki } m^3 \text{ } 0^\circ \text{ bo'lganda va } 1 \text{ atm.}$$

Natijani og'irlikda ifodalash uchun dastlabki moddaning molekular og'irliigi (massasi) molekular hajmga (x) ko'paytiriladi:


$$g = M \cdot x \text{ g yoki kg.}$$

$$\text{Zn} - 40:65,38=0,612 \text{ m.o.};$$

$$\text{Cd} - 112:112,4=0,107 \text{ m.o.};$$

$$\text{Cu} - 63,5:63,5=0,314 \text{ m.o.}$$

Quyidagi tenglamadan metallning oksidlanishi



$$\text{oksidlanganda } 2 - 0,612 : 2 = 0,306 \text{ m. o.}$$

$$\text{Cd} - 0,107:2 = 0,053 \text{ m.o.}$$

$$\text{Cu} - 0,314:2 = 0,157 \text{ m. o.}$$

$$0,516 \text{ m. o.,}$$

100 kg kek dan iborat

$$V = 22,4 \cdot x = 22,4 \cdot 0,516 = 11,56 \text{ l } (0^\circ \text{ bo'lganda } 1 \text{ at}) \text{ yoki}$$

$$g = M \cdot k = 32 \cdot 0,516 = 16,51 \text{ kg.}$$

$$500 \text{ kg kekka kerakli bo'lgan kislorod } \frac{11,56 \cdot 500}{100} = 57,80 \text{ m}$$

$$(0^\circ \text{ bo'lganda } 1 \text{ am}) \frac{16,51 \cdot 500}{100} = 82,55 \text{ kg}$$

Le-Shatele usuli agar kimyoviy jarayon gazlar bo'yicha bo'lsa ancha oson hisoblab chiqariladi. Shuning uchun bunday holatlarda Le-Shatele usulidan foydalaniladi. Masalan: yopish jarayonida miqdoriy munosabatlar (zarur havo sarfi, tutunli gazlar tarkibi va boshqalar) shu usulda hisoblanadi. Le-Shatele usuli asosan molekular holda belgilanadi.

Hisobini aniqlashda metallurgik hisob-kitob shu jarayon yo'nalishiga to'g'ri kelishi kerak. Unga ko'p na kam bo'lishi kerak, u jarayonda ko'rsatilgan miqdorga aniq kelishi kerak. Ya'ni, shixtani hisoblashda issiqlik balansini tuzishda va boshqa hisob-kitoblar albatta 3-4 sonlargacha aniqlikda hisoblash zarur. Katta aniqlik vaqtini bekor ketkazishga va hech qanday ma'noga ega bo'lmas edi. Haqiqatda ishlab chiqarish jarayonida barchasi asos qilib olingan reaksiyaga

kirishayotgan moddalar to'liq va aniq ko'rsatilmaydi. Metallni qayta ishlovga olishdagi kimyoviy sinovlarda ikki o'nlikkacha bo'lgan belgilar ko'rsatiladi va u har doim materiallar tartibiga to'g'ri kelavermaydi. Shuning uchun hisob-kitoblar taxminan ma'lumotlar asosida va shu jarayondagi miqdoriy nisbatlari yaqinroq qulayroq qilib va ba'zi bir kamchiliklari bilan olinadi. Shunga qaramay ishlab chiqarishda hisob natijalari juda katta aniqlikda bo'lmaydi, chunki unda katta miqdordagi massa qatnashadi, ularni aniq hisoblash mumkin emas.

Agar shixta 1 kg dan kam bo'lmagan aniqlikda o'lchansa, unda natija ham 0,1 kg gacha aniqlikda hisoblashishi mumkin. Og'irligi uncha ko'p bo'lmagan qimmatbaho materiallar qatnashgan jarayonlarda, ya'ni rafinirlashda, shlakni qayta ishlashda va boshqa jarayonlarda hisoblash ancha kam aniqlikda, ya'ni kilogramm o'rniga grammlarda aniqlangan.

Atom va molekular og'irliklardan foydalanganda 0,1 soniga yaxlitlanadi va to 1 sonigacha yaxlitlanishi mumkin. Masalan: oltingugurt 32,06 o'rniga 32; temir 55,86 o'rniga 56 olinadi; qo'rg'oshin 65,38 o'rniga 65,4 va hokazo.

$$SO_2 = \frac{1,0}{13,786} \cdot 100 = 7,2,$$

$$O_2 = \frac{1,5}{13,786} \cdot 100 = 10,9,$$

$$N_2 = \frac{11,286}{13,786} \cdot 100 = 81,9.$$

$$\text{Bundan } SO_2 = \frac{7,2 \cdot 64,06 \cdot 100}{7,2 \cdot 64,06 + 10,9 \cdot 32 + 81,9 \cdot 28} = \frac{461 \cdot 2 \cdot 100}{3103,2} = 14,9.$$

$$O_2 = \frac{10 \cdot 9 \cdot 32}{3103,2} \cdot 100 = 11,2.$$

$$N_2 = \frac{81 \cdot 9 \cdot 28}{3103,2} \cdot 100 = 73,9$$

100,0

Qabul qilingan hisoblash aniqligi barcha bir xil natijalarda bir xil ko'rinishda, ya'ni o'nliklarda bir xil ifodalanishi kerak. Masalan: agar birorta eritmaning tarkibi 0,1 foizgacha aniqlikda o'lchangan bo'lsa, barcha qolgan komponentlar ham shu bir xil o'nlikda qabul qilinishi kerak, ya'ni 2 ta yoki boshqa o'nliklarsiz emas. Bu umumiy qabul qilingan qoidaga muvofiq oxirgi son aniq deb emas, balki oldingi son

to'g'ri deb topiladi.

Masalan, agar birorta materialni 15,25 kg deb belgilasak, unda u 0,01 kg aniqlikgacha o'lchangan bo'ladi va oxirgi sonda o'ziga xos aniqlik bo'lmaydi, bunda avvalgi son aniq deb hisoblanadi. Shuning uchun qabul qilingan aniqlik bo'yicha hisoblanadi, masalan agar 0,01 kg aniqlikdagi son olingan bo'lsa unda javob ikkita nol bilan ifodalanadi (15 o'rniga 15,00 olinadi) agar avvalgi son 5 dan kichik bo'lsa, o'chiriladi, agar 5 dan katta bo'lsa 1 deb qo'shiladi (masalan 15,2364 o'rniga 15,24 deb).

Takrorlash uchun savollar

1. Le-Shatele prinsipi asosida misollarni yeching.
2. Le-Shatele usulida kimyoviy jarayonning gazlar bo'yicha hisoblab chiqaring.

5 - Amaliy mashg'ulot

Murakkab birikmalarning kimyoviy tarkibini hisoblash

1 - misol. Xalkopiritning CuFeS_2 tarkibini aniqlash.


Yechish. Xalkopiritning CuFeS_2 formulasidan kelib chiqadiki, unda 2 atom oltingugurt ($32 \times 2 = 64$) bir mis (64) va bir atom temir (56) bilan bog'langan. CuFeS_2 ning molekular ogirligi $64 + 56 + 64 = 184$ ga teng. Proporsiya tuzamiz va uni yechamiz:



$$x = \frac{64 \cdot 100}{184} = 34,6\% \text{Cu}$$




$$x = \frac{56 \cdot 100}{184} = 30,4\% \text{Fe}$$



$$x = \frac{64 \cdot 100}{184} = 35\% \text{S}$$

2 - misol. 500 kg temir sulfidi FeS olish uchun qanch temir va oltingugurt kerak bo'ladi?

Yechish. FeS ning hosil bo'lish reaksiyasidan



ko'rib turibmizki, 88 kg FeS uchun 56 kg Fe va S kerak bo'ladi. U holda 500 kg olish uchun kerak bo'ladi:

$$\text{temir } \frac{56 \cdot 500}{88} = 317 \text{ kg}$$

$$\text{oltingugurt } \frac{32 \cdot 500}{88} = 183 \text{ kg}$$



3 - misol. Tadqiqotlar bo'yicha mis rudasida 0,40 % mis xalkopirit CuFeS_2 ko'rinishida bo'ladi. Uning rudadagi tarkibini aniqlang.

Yechish. Xalkopirit formulasi bo'yicha CuFeS_2 64 massa og'irligi, mis unda 184 massa og'irligi mineral hosil qiladi, u holda, 0,40 % Cu quyidagini

$$\frac{184 \cdot 0,40}{64} = 1,15\% \text{ tashkil qiladi.}$$

4-misol. Kristallik rux sulfati $\text{ZnSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$ quritilganda 115°C da 6 mol va 225°C da suvga ajraladi. Sulfatlardagi Zn ning tarkibini quritishgacha va undan keyin shu temperaturalarda aniqlash.

Yechish. Kristallik sulfatning quritish davridagi ajralishini tenglama orqali tasavur qilish mumkin.



Ruxning 65 atom og'irligida ruxning miqdori quyidagini tashkil etadi:

$$\text{ZnSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O da: } \frac{65 \cdot 100}{288} = 22,75\%$$

$$\text{ZnSO}_4 \cdot \text{H}_2\text{O da: } \frac{65 \cdot 100}{780} = 35,43\%$$

$$\text{ZnSO}_4 \text{ da: } \frac{65 \cdot 100}{162} = 40,5\%$$

Quritish davrida og'irlikning yuqolishi 115°C gacha

$$\frac{6 \cdot 18 \cdot 100}{288} = 37,6\%.$$

$$225^\circ\text{C gacha } \frac{7 \cdot 18 \cdot 100}{288} = 43,8\%.$$

Takrorlash uchun savollar

1. Xalkozinni CuS_2 tarkibini aniqlang.
2. Kristall mis sulfatini 125°C da eritilish darajasini aniqlang.

6 - amaliy mashg'ulot

Metallurgiyada qo'llaniladigan birikmalarning tarkibini aniqlash


1- misol. Tahlilga ko'ra tabiiy oxakda 46% CaO bor. Aniqlash kerak:

- A) oxaktoshning tozalik darajasi.
- B) qizdirilganda chiqadigan (uchlik kaliy) gaz va oxak.
- D) olingan oxakning tozalik darajasini.

Yechish. CaCO_3 ning molekular massasi 100,1 CaCO - 56,1 demak toza oxaktosh da 56,1 % CaO bo'lishi mumkin.

46% CaO bo'lganda $\frac{100,1 \cdot 46}{56} = 82,1\% \text{CaCO}_3$ bo'ladi

Bu son oxaktoshning tozalik darajasini



Bundan ko'rinadiki 56,1 CaO da 44 CO_2 chiqadi.

Demak, qizdirilga har bir 100 kg dan


$\frac{46,0 \cdot 44,0}{56,1} = 36,1$ ga CO_2 , chiqadi, Avogadro qonuniga asosan hajm

birikmalari $V = g \frac{22,4}{M} = 18,4 \text{ m}^3$ 760 mm.rt.st.da

Qizdirilganda 100 kg oxaktoshdan 36,1 kg CO_2 chiqqani uchun $100 - 36,1 = 63,9$ kg oxaktosh olinadi. 100 kg oxaktoshdan oxakka 46 kg CaO kelib tushadi. Demak olingan oxakni tozalik darajasi

$\frac{46,0 \cdot 100}{63,9} = 72,0\%$.

2-misol. 1 atm da 150 l karbonat anhidrid gazi olish uchun tarkibida 90% CaCO_3 va 20 % li ishqoriy kislota bo'lgan oxaktoshdan qancha kerak bo'ladi.



Ko'rinadiki 22,4 l CO_2 ga 100 gr CaCO_3 va 73 HCl kerak bo'ladi. 150 l CO_2 uchun

$$1) \frac{100 \cdot 150}{22,4} = 670g \text{ toza } CaCO_3 \text{ yoki } \frac{670 \cdot 100}{90} = 744g \text{ oxaktosh;}$$

$$2) \frac{73 \cdot 150}{22,4} = 489g \text{ HCl yoki } \frac{489 \cdot 100}{20} = 2245g \text{ 20 \% li solyan kislota kerak.}$$

3-misol. Sulfidli (sink) li konsentrat quyidagi tarkibga ega 54,40% Zn 7,20 % Fe , 2,00 % Rb, 1,2% Cu 32,8 % S va boshqalar - 2,40 % . Agar qo'rg'oshin RbS mis CuFeS₂, rux marmarit ruxli aldanma bo'lib u bilan temirning bir qismi FeS va bir qismi konsentratda bo'sh piret FeS₂ ko'rinishida bo'lsa konsentratning ratsional tarkibini hisoblang.

Yechish. Avval 100 kg konsentratda ZnS, RbS va CuFeS₂ birikmalaridagi oltingugurtning miqdorini topish.

Proporsiya tuzamiz:

$$\begin{array}{r} \text{Zn} - \text{S} \\ 65,4 - 32,1 \\ 54,4 - x \end{array}$$

$$x = \frac{32,1 \cdot 54,40}{65,4} = 26,70 \text{ kg S va ZnS}$$

$$\begin{array}{r} \text{Pb} - \text{S} \\ 207,2 - 32,1 \\ 2,0 - x \end{array}$$

$$x = \frac{32,1 \cdot 1,20}{207,2} = 0,31 \text{ kg Pb va Cu FeS}_2.$$

$$\begin{array}{r} \text{Cu} - \text{S}_2 \\ 63,6 - 64,2 \\ 1,2 - x \end{array}$$

$$x = \frac{64,2 \cdot 1,20}{63,6} = 1,21 \text{ kg S va Cu FeS}_2.$$

birikmadagi Fe miqdori CuFeS₂:

$$\begin{array}{r} \text{Cu} - \text{Fe} \\ 63,6 - 55,8 \\ 1,2 - x \end{array}$$

$$x = \frac{55,8 \cdot 1,20}{63,6} = 1,05 \text{ kg Fe va CuFeS}_2.$$

Shunday qilib ZnS, RbS va CuFeS₂ hamda 26,70+0,31+1,21=28,22 kg oltingugurt va 1,05 kg temir birikkan. Oltingugurtning qolgani 32,80 - 28,22 = 4,58 kg va temirning qolgan 7,20 - 1,05 = 6,15 kg izomorf Fe va bo'sh FeS₂ tarkibidagi taqsimlanadi.

Birinchi birikmada 1 atom Fe ga 1 atom S. Ikkinchi birikmada 1 atom Fe ga 2 atom S borligini bilgan holda konsentratning tarkibini topish mumkin.

$\text{FeS}(M=87,9)$ FeS_2 ($M=120$)ni y , oltingugurt qoldig'ini A va temir qoldig'ini B bo'lgan deb belgilab tenglamalar tuzamiz va yechamiz.

1) FeS va FeS_2 dagi oltingugurt bo'lsa

$$x = \frac{32,1 \cdot x}{87,9} = \frac{64,2 \cdot y}{120} = A,$$

2) FeS va FeS_2 dagi temir bo'lsa

$$x = \frac{55,8 \cdot x}{87,9} + \frac{55,8 \cdot y}{120} = B.$$

Bu $-x$ tenglamalar sistemasini yechib quyidagini hosil qilamiz.
 Fe S uchun $x = 3,15$ $B = 2,74A$,

FeS_2 uchun $y = 3,74$ $x = 2,15$

Misolimizda A ning $4,58$ va B ning o'rniga $6,15$ qo'yib quyidagini olamiz.

$$x = 3,15 \cdot 6,15 - 2,74 \cdot 4,58 = 6,82 \text{ kg FeS},$$

$$y = 3,74 \cdot 4,58 - 2,15 \cdot 6,15 = 3,91 \text{ kg FeS}_2.$$

Endi konsentratning reaksiya tarkibini hisoblaymiz.

$$\text{ZnS} \quad 54,4 (\text{Zn}) + 26,70 (\text{S}) = 81,10$$

$$\text{FeS} \quad 6,82$$

$$\text{CuFeS}_2 \quad 1,2 (\text{Cu}) + 1,05 (\text{Fe}) + 1,21 (\text{S}) = 3,46$$

$$\text{RbS} \quad 2,0 (\text{Rb}) + 0,31 (\text{S}) = 2,31$$

$$\text{FeS}_2 \quad 3,91$$

$$\text{SiO}_2 \text{ va boshqalar} \quad \frac{2,40}{100,00}$$

Takrorlash uchun savollar

1. $\text{ZnS} + \frac{3}{2} \text{O}_2 = \text{ZnO} + \text{SO}_2$ formuladan SO_2 gaz holidagi ajralishi hisoblang.

7 - amaliy mashg'ulot

Kimyoviy tahlillar asosida jismning mineral tarkiblarini aniqlash

1-misol. Sulfidli misli ruda birligi xalkopirit va oxristosilikatdan tashkil topgan. Tahlilga ko'ra unda 16,2% sulfidi mis 9,0 % sulfidli oltingugurt bor. Rudadagi bornit va xalkopirit miqdorini aniqlash

kerak.

Yechish. Avval masalani umumiy ko‘rinishida yechamiz. Bornitning rasional formulasi $\text{Fe}_2\text{S}_3 \cdot 2\text{Cu}_2\text{S}$ ($m=685,8$) xalkopiritning $\text{Fe}_2\text{S}_3 \cdot \text{Cu}_2\text{S}$ ($m=367,2$), ya‘ni ikkala mineral Cu_2S va Fe_2S_3 dan iborat. Rudadagi misning miqdori tarkibini bilgan holda Cu_2S ($m=159,3$) summasini hisoblash mumkin, sulfidli oltingugurtning miqdorini bilib Fe_2S_3 ($m=207,9$)ning yig‘indisini hisoblash mumkin.

Hisoblangan Cu_2S ni A bilan Fe_2S_3 ni B bilan bornitning miqdorini x bilan va xal‘kopiritning miqdorini y bilan belgilab tenglama tuzamiz:

$$1) \text{Cu}_2\text{S} \quad x = \frac{3 \cdot 159 \cdot x}{685,8} + \frac{159,3 \cdot y}{367,2} = A,$$

$$2) \text{Fe}_2\text{S}_3 \quad x = \frac{207,9 \cdot x}{685,8} + \frac{207,9 \cdot y}{367,2} = B.$$

Tenglama sistemasini yechib quyidagini olamiz.

$$X = 2,15A \cdot 1,65B = \text{Fe}_2\text{S}_3 \cdot 3 \text{Cu}_2\text{S uchun}$$

$$U = 2,65B \cdot 1,15A = \text{Fe}_2\text{S}_3 \cdot \text{Cu}_2\text{S uchun}$$

Rudadagi misolning miqdorini hammamiz

$$x = \frac{2159,3 \cdot 16,2}{2 \cdot 63,6} + 19,9 = A.$$

Oltingugurtning miqdori

Cu 19,9-16,2=3,7% sulfidli oltingugurt qoldig‘i 9,0-3,7=5,3% quyidagi miqorda Fe_2S_3 hosil qilinadi:

$$\frac{207,9 \cdot 5,3}{3 \cdot 32,1} = 11,4\% = B.$$

Tenglamaga qo‘yamiz

$$X = 2,15 \cdot 19,9 - 1,65 \cdot 11,4 = 24,0\% \text{ bornit}$$

$$U = 2,65 \cdot 11,7 - 1,15 \cdot 19,9 = 7,3\% \text{ xalkopirit}$$

Takrorlash uchun savollar

1. Magnetitning tarkibiy qiymatini aniqlang.
2. Xalkopiritning tarkibidagi temirning miqdorini aniqlang.

8 - amaliy mashg'lot

Sulfidlarni kuydirilishi natijasida ajraladigan gazlar tarkibi va miqdorini hisoblash

1-misol. Berilgan tarkibli 100 g kolchedan kuydirilganda oltingugurt to'liq yonib ketishi va gazdagi SO_2 ning konsentratsiyasi 100% bo'lish sharti bilan ajralib chiqadigan gazning tarkibi va miqdorini aniqlang.

Yechish. Avval olinadigan CO_2 va kolchedanni yondirish uchun kerak bo'lgan havo hajmini aniqlaymiz. Hisoblarni 100 kg kolchedan uchun molekular hajm uslubida olib boramiz.

Kolchedanning oksidlanadigan minerallari miqdorini aniqlaymiz:




$$\text{CuFeS}_2 - 10,38 : 183,6 = 0,0566 \text{ m.h.};$$

$$\text{ZnS} - 6,11 : 97,5 = 0,0527 \text{ m.h.};$$

$$\text{FeS} - 1,39 : 87,9 = 0,0158 \text{ m.h.};$$

$$\text{FeS}_2 - 78,82 : 120 = 0,6569 \text{ m.h.}$$

Bu minerallarning oksidlanishi reaksiyalari quyidagicha tenglamalar bilan ifodalanadi:



Tenglamadan ko'rinadiki CuFeS_2

$$\text{CuFeS}_2 \quad 0,0566 \cdot 2 = 0,1132 \text{ m.h.}$$

$$\text{ZnS} \quad 0,0627 \text{ m. h.}$$

$$\text{FeS} \quad 0,0158 \text{ m. h.}$$

$$\text{FeS}_2 \quad 0,6559 \cdot 2 = \underline{1,3138 \text{ m. o.}}$$

$$1,5055 \text{ m. o.}$$

$$\text{Bundan } 22,4 \cdot 1,5055 = 33,72 \text{ m}^3 \text{ } 0^\circ \text{ bo'lganda va } 1 \text{ atm.}$$

$$\text{CuFeS}_2 \quad 0,0566 \cdot \frac{13}{4} = 0,1839 \text{ m.h.}$$

$$\text{ZnS} \quad 0,0627 \cdot \frac{3}{2} = 0,0941 \text{ m.h.}$$

$$\text{FeS} \quad 0,0158 \cdot \frac{7}{4} = 0,0276 \text{ m.h.}$$

$$\text{FeS}_2 \quad 0,0627 \cdot \frac{11}{4} = 0,8065 \text{ m.h.}$$

$$2,1121 \text{ m.h.}$$

Havodagi 1 m.h kislorod 3,762 m.h azot to'g'ri keladi 2,1121 m.h $22,4 \cdot 7,9457 = 177,98 \text{ m}^3$ azot kerak.

Topshiriqqa ko'ra gazda 100 % SO_2 , bo'lishi kerak. Demak, gazning umumiy hajmi 32,72 va 3SO_2 uchun quyidagi proporsiya topiladi: $100 \text{ m}^3 \text{ gaz } 10 \text{ m}^3 \text{ SO}_2 \times 33,72 \text{ m}^3 \text{ SO}_2$

$$x = \frac{33,72 \cdot 100}{10} = 337,2 \text{ m}^3.$$

Bu gazning tarkibi $33,72 \text{ m}^3 \text{ SO}_2$ va $177,98 \text{ m}^3$ azot kiradi. Yetishmayotgan gaz miqdori ortiqcha havoni bildiradi, uning hajmi $337,2 - (33,72 + 177,98) = 125,5 \text{ m}^3$ unda kislorod miqdori

$\frac{125,5 \cdot 21}{100} = 26,36 \text{ m}^3$, azot $\frac{125,5 \cdot 79}{100} = 99,14 \text{ m}^3$. Olingan gazning tarkibi 8.1-jadvalda berilgan.

8.1 jadval

	Gaz hajmi, m^3				Og'irligi $g = M/22,4$, kg	Og'irlik bo'yicha, %
	Havo ning sarfla nishi	Boshlan- g'ich havo	Jami	Hajm bo'yicha, %		
SO_2	-	-	33,72	10	$33,72 \cdot 64 / 22,4 = 96,64$	20,1
O_2	-	26,36	26,36	7,8	$26,36 \cdot 32 / 22,4 = 37,66$	7,8
N_2	177,98	99,14	277,12	82,8	$277,12 \cdot 28 / 22,4 = 346,40$	71,1
	Jami	125,50	337,20	100	480,70	100

1 m kolchedanni yondirilmaganda $\frac{337,2 \cdot 1000}{100} = 3372 \text{ m}^3$ gaz olinadi 0°

bo'lganda 760 mm.rt.st, yoki $\frac{480,7 \cdot 1000}{100} = 48,07 \text{ kg}$.

Takrorlash uchun savollar

1. Qanday holatda gazlar ajraladi?
2. Atmosferada qancha miqdorda kislorod miqdorini borligini hisoblang?

9 - amaliy mashg'ulot

Qattiq uglerod bilan qayta tiklanishning texnologik hisoblari


1-misol. 70 % ZnO va 30 % bosh jinsdan tashkil topgan yondirilgan ruxli konsentrat tarkibida 90% C va 10 kul distillyatsiya qilinishi kerak. Topish kerak:

1.93 % ga qaytarilganda ZnO sharti bilan 200 kg rux olish uchun kerak bo'lgan toshko'mir, konsentrat miqdori va shixtaning tarkibi;

2. Tiklanish natijasida olinadigan uglerod oksid miqdori (m^3);

3. Distillatsiyada hosil bo'lgan qoldiqni tarkibi va chiqimi rux oksidi

Yechish. Rux orqali qaytarish tenglamasi



$$81,4 \quad 12 \quad 65,4 \quad 28$$

